

“SOHILSIZ DENGIZ” IMOM BUXORIY HAZRATLARI HAQIDAGI AJOYIB ASAR “

Iskandarova Mashhura

Guliston davlat pedagogika insituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yozuvchi va journalist Ahmad Muhammad Tursun qalamiga mansub bo'lgan, "Sohilsiz dengiz" romani ko'rib chiqiladi. Asarning mazmun mohiyati, hazrat Imom Buxoriyning umr yo'llari, ustozlari, shogirdalari va oilasi haqida aytib o'tildi. U zotning ilm yo'llari, ilmi orqali qilgan ishlari haqida aytiladi hamda u zotning hayotlari yozuvchining asari orqali ko'rib chiqiladi. Yozuvchi Ahmad Muhammad Tursun haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Muhammad ibn Ismoil, din, ilm, Fotima, ustozlar, muhaddis, hadis, tarbiya.

Annotation: This article examines the novel "The Sea Without a Shore" by the writer and journalist Ahmad Muhammad Tursun. The content of the work, the life path of Imam Bukhari, his teachers, students and family are discussed. His path to knowledge, the work he did through knowledge are discussed, and his life is examined through the writer's work. Information about the writer Ahmad Muhammad Tursun is provided.

Key words: Muhammad ibn Ismail, religion, science, Fatima, teachers, hadith scholar, hadith, education.

Аннотация: В данной статье рассматривается роман «Море без берега» писателя и журналиста Ахмада Мухаммада Турсуна. Обсуждается содержание произведения, жизненный путь имама Бухари, его учителей, учеников и семьи. Обсуждается его путь к знаниям, работа, которую он проделал посредством знаний, а также рассматривается его жизнь через творчество писателя. Предоставляется информация о писателе Ахмаде Мухаммаде Турсуне.

Ключевые слова: Мухаммад ибн Исмаил, религия, наука, Фатима, учителя, хадисовед, хадис, образование.

Ahmad Muhammad qalamiga mansub bo'lgan "Sohilsiz dengiz" Imom Buxoriy hazratlarining hayot sahilari haqida hikoya qiladi. Imom Buxoriyning tug'ilishi, bolaligi, hayotida davomida tahsil olgan ustozlari hamda umri davomida o'zi tahsil bergan shogirdlari va o'tkazgan umr yo'llari haqida

Ahmad Muhammad Tursun tomonidan bua sarda batafsil aytib o‘tilgan. Bu asar roman janrida yozilgan bo‘lib, 2000-yilda yozib tugatilgan. Bu asar yozuvchining shuhrat keltirgan asarlaridan biri hisoblanadi. Adibning bunday mashhur asarlaridan yana “Ko‘hna dunyo rivoyatlari”, “Hikmatlar kitobi”, “Rivoyatlar kitobi”, “Dunyoni tebratgan buyuklar” nomli asarlari mavjud. Jurnalist hamda yozuvchi Ahmad Muhammad Tursun 1949-yil Namangan shahrida tavallud topgan. Ijodkor 1979-yil Namangan davlat universitetini tamomladi va 1967-yildan buyon matbuotda faoliyat yuritgan so‘ng 2003-2010-yillarda “Hidoyat” jurnalida bo‘lim muharriri bo‘lib ishladi. 2014-yildan “Hilol-nashr” nashriyotida muharrirlik qilgan va yozuvchining ko‘plan asarlari jumladan, “Sohilsiz dengiz” asari ham shu nashriyotda chop etilgan. Ijodkor tomonidan elikka yaqin publitsistik, badiiy hamda ilmiy-ma‘rifiy asarlar nashr etilgan. Ahmad Muhammad Tursun O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi bo‘lgan. Uning asarlari “Abu Homid G‘azzoliy.Qalblar tabibi”, “Amir Temur. Buyuk sarkarda va sohibqiron”, shuningdek, turli yillarda chop etilgan “Qaynona va kelin”, “Ota-ona rizosi”, “Islom dini”, “Tabobat kitobi” kabi ilmiy va tarbiyaviy asarlari mavjud. Ahmad Muhammad Tursun 2021-yil 18-may sanasida Toshkent shahrida vafot etdi. Yozuvchi kitobxonlar uchun o‘zining unutilmas asarlarini qoldirib ketdi. Bunday asarlaridan biri “Sohilsiz dengiz” romanidir. Romanning har bir bobida Imom Buxoriy uchun olimlar tomonidan aytilgan fikrlar epigraf qilib olingan. Muhammad ibn Ismoil xijriy yuz to‘qson to‘rtinchi sananing o‘n uchinchi shavvolida dunyoga keladi. Uning otalari Ismoil, onalari esa, Fotima , akasi Ahmad bo‘lgan. Buxoriyning ota-onasi juda ham ilmiy, tarbiyali va dindan xabari bor insonlar bo‘lgan shuning uchun ham, Muhammad tug‘ilganda otasi:”Guvoh bo‘linglar, uning ismini Muhammad qo‘ydim. Bobomning ismlari Ibrohim alayhisalomga adil edilar, meniki Ismoil alayhisalomga adil qilib qo‘yilgan, buning ismi oxirzaamon payg‘ambari ismlariga adil bo‘lsin” deya Muhammad ismini qo‘yadi.

Qutayba ibn Muslim tarafidan VII asrda islom dinining kirib kelishi sababli Ismoil islom dinidan bo‘ladi. Asarda Buxoro Islomdan oldin Zardushtiylilik dinida bo‘lgan deb aytib o‘tilgan va Buxoriy davrida ham bu dinni targ‘ib qiluvchi insonlar bo‘lgan. Buxoriy tug‘ilgach uning bunday aql-zakovatli hamda tarbiyali bo‘lishida onalari Fotimaning o‘rni juda katta hisoblanadi. Muhammad tug‘ilishidan oldin Fotima doim pok yurar, kitoblar o‘qir, ilm olardi va Muhammad tug‘ilgach otalari vafot etayotganda aytgan vasiyatini amalga oshirish uchun ham farzand tarbiyasi bilan shug‘ullandi. Ismoil ibn Ibrohim farzandini payg‘ambarimizdek insonlarni ezgulikka boshlovchi , dinini

o'rgatuvchi komil inson bo'lishini xoxlagandi. Va vasiyatni amalga oshirish uchun Muhammad harakat qildi va ulug' martabaga erishgan muhadis bo'lib yetishdi. Imom Buxoriy yoshligidan ilmga chanqoq va hadis yodlab kun o'tkazardi. U bolaligidanoq anchagina hadis yodlab olgan edi. Ustozlari aytgan hadislarini ham daftarga yozib olmas aksincha xotirasida saqlab qolar edi. U o'n bir yoshligida ustozlari hadis aytayotganda uning hadisni to'g'ri aytmayotganligini aytib hadisni to'g'irlab qo'ydi. Imom Buxoriyning bu darajada savodli bo'lganiga qator fikrlar mavjuddir. Muso ibn Xorun Xammol shunday deydilar: "Menimcha, Islom ahlining barchasi jamlanib, Muhammad ibn Ismoilga o'xshash yana bir kishini yetishtirmoqchi bo'lishsa, buni eplay olishmaydi". Yoki Vaqi' ibn Jarroxning: "Kishi o'zidan Yoshi ulug'idan, tengdoshidan va hatto Yoshi kichikdan ham hadis rivoyat qilmaguncha olim bo'lolmaydi". Imom Buxoriy olim bo'lgan edi chunki u har kimdan hadis tinglar va ularni yodlab olar edi. U yodlagan hadislarini kerakli va to'g'ri aytilgan hadislariga hamda aniq bo'lmagan hadislariga ajratar edi. Imom Buxoriyning mashhur "Sahih" kitobida keltirilgan hadislarini olgan shayxlari besh tabaqadan iboratdir:

1. Imom Buxoriy bilan birga hadisni rivoyat qiluvchi tobein orasida faqat bitta roviy bor holos.
2. Tobeinlardan hadis olgan imomlardan rivoyat qiladigan odamlardir
3. Imom Buxoriy ko'rgan lekin ulardan hadis eshitmagan kishilar
4. Imom Buxoriyning tabaqalaridagi kishilar bo'lib, ular orqali o'z shayxlarining rivoyatlarini olgan.
5. Sanad, yosh, vafot va ma'rifatda Imom Buxoriydan keyin turadigan bo'lishsada, u kishi ulardan rivoyat qilgan.

Imom Buxoriyning o'zi : "Muhaddis toki o'zidan yuqori, o'zi tengi va o'zidan kichiklardan rivoyat qilmaguncha komil inson bo'la olmaydi" deydi va Buxoriy: "Men hadislarini bir ming sakson muhaddisidan yozib oldim" deydi. Buxoriy o'n olti yoshida onasi va akasi bilan Makkaga bordi va u shu yerda ilm olish uchun qoldi. Muhammad ibn Ismoil Makkada, Madinada, Basrada, Kufada, Bag'dodda, Shomda, Misrda, Balxda, Marvda, Naysoburda hamda Hirotda ko'plab ustozlardan tarbiya va bilim oldi. Buxoriy bolaligida Muhammad ibn Salmon Boykandiy, Muhammad ibn Yusuf Buxoriy, Shayx Abdulmalik Dohiliy, Abdulloh ibn Ahmad Musnaviy kabi ustozlardan tahsil oldi. Bu malumotlarni u o'zining "Tarixi Kabir" asarida keltirdi. Bu asarni u o'n sakkiz yoshida yozdi. Buxoriy ilmga hadislariga shu qadar berilib ketar ediki hattoki, tanovul qilish yodidan ko'tarilar edi. U zot nafsini boshqara

oladigan va oz yeydigan kishilardan biri edi va oxirgi paytlarda faqat non yeydigan bo'lib qoladi so'ng sog'ligida muammo bo'lgach, ozgina shirinlik qo'shib yeydigan bo'ldi. Imom Buxoriy yoshligidan dovrug'i hamma joyga yoyildi va uni Bag'dodga chaqirishdi. Bag'dodagi imomlar :” Allaqayoqdagi bir ajamiyning bizga kelib hadis o'rgatishi Abbosiy xalifalar markazi, Quraysh imomiylarining da'vat markazi bo'lmish Bag'dod ahliga nomunosibdir” deb maslahat qilishadi va Imom Buxoriyni imtixon qilish uchun fitna tuzishadi. Lekin Muhammad zehnli bo'lgani uchun bu fitnani sezib qoladi o'zining tarbiyasi va ilmi bilan ularga javob beradi va Bag'dod ahli va imomlari Imom Buxoriyga qoyil qolishadi. Bunday voqea Buxoriyning hayotida yana bir bor sodir bo'lgan, Samarqandda ham uni fitna orqali sharmanda qilishmoqchi bo'lishadi lekin, uddasidan chiqisha olmaydi.Imom Buxoriy olti yuz ming hadis to'plagan. Undan yuz ming sahih, ikki yuz ming zaif hadisni yodlagan. Imom Buxoriy ilmni va ustozlarni ulug'lagan. Asardagi asosiy urg'u berilgan jihatlardan biri bu ilm olishdir. Bu asar har bir ilm talabida bo'lgan ilmi tolib uchun qaysidir ma'noda qo'llanma bo'lib xizmat qila oladi. Imom Buxoriy ham umrlarining oxirigacha ilm izladilar. Buxoriy bolaligidan hadis olti yuz mingtadan ko'p hadis yodlagan bo'lsalar ham , bo'sh vaqtlarida o'tgan umrlariga bir nazar tashlardi. “Shuncha vaqtda men nima qila oldim oxirat uchun “ degan savolni o'zlariga berardi deb shogirdlari aytgan edi asarda. Ulug' imom bu savolni o'ziga berishi kamtarlik, Yaratgandan qo'rqishi va yana ko'proq ilm bilan siylashini xoxlashini bildiradi. Imom Buxoriyga otasi Ismoilidan qolgan ancha mol-mulk bor edi va u umrining oxirigacha yetardi lekin u halol luqmani o'zi topib yeyishni xoxladi, har bir narsani haloliligaga qarab iste'mol qildi. To'rt narsani to'g'ri qilgan insonga ilm yuqishi haqida asarda aytib o'tildi:

1. Kissai padar
2. Kosai modar
3. Kashishi ustoz
4. Kushishi shogird

Otaning cho'ntagida halol luqma bo'lsa, onaning taomlantirishi to'g'ri bo'lsa, ustozning bilim berishi yaxshi bo'lsa hamda shogird bularga qunt qilsa shundagina ilmni yaxshi olishligi haqida aytib o'tilgan.

Ushbu tarixiy asar ulug' vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning hayot yo'llari, hasbi hollari, ilmiy faoliyatlari haqida hikoya qiladi. Muhaddislar sultoni Rasululloh sollalohu alayhi vasallam hadislarining “tabibi” nabaviy hadislarining sahihlarini ajratib, ulardan “Sahihi

Buxoriy” hadislar to‘plamini yaratgan ulug‘ alloma, muhaddis, imomud-dunyo, olimlar peshvosi butun dunyoda mashhur. Bu asar ishonchli ilmiy manbalar, taniqli Islom ulamolarining asarlariga tayangan holda yozilgan. Asarning mazmun-mohiyati, mazmuni quyidagilardan iborat deb aytib o‘tish mumkin: ilm olish, tarbiya, nafsni boshqarish, ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar, dinga bo‘lgan muhabbat, ota-ona tarbiyasi va hayot davomida ilm o‘rganish kerakligi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ajdodimiz Imom Buxoriyning ilmlari cheksiz bo‘lganligini ramziy ma’nosida asar “Sohilsiz dengiz” deb atalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz. Roman. Hilol-nashr.
2. <https://www.wikipedia.org/>
3. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/ahmad-muhammad-tursun/>
4. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/download/1488/2834/1438>